ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ



YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI: ISH IZLOVCHIDAN — QIYMAT YARATUVCHIGA TRANSFORMATSIYA

AZIZBEK XASANOV,
Termiz davlat pedagogika instituti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar bandligini ta’minlash va ularning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Prezidentimiz tomonidan Ko‘ksaroyda o‘tkazilgan yoshlar bilan ochiq muloqotda belgilangan vazifalar nafaqat poytaxtda, balki chekka hududlardagi oliy ta’lim muassasalarida ham real amaliyotga ko‘chmoqda. Buning amaliy ifodasini Termiz davlat pedagogika instituti misolida ko‘rishimiz mumkin.

TA’LIM VA INNOVATSIYA INTEGRATSIYASI

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Universitet — innovatsiya va tadbirkorlik xabi” g‘oyasi bugun Termiz davlat pedagogika instituti faoliyatining asosiy mezonidir.

2026-2027-yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” doirasida institutda ta’lim sifatini xalqaro tajriba asosida transformatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar boshlangan. Xususan, 2026-yil fevral oyidagi davlatimiz rahbari qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida institutda Startap ekotizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu shunchaki nazariy bilim emas, balki talabalarni real bozor sharoitiga tayyorlashning zamonaviy mexanizmidir. Shu bois ham universitetda bir qator yangi loyiha ishlanmalari bo‘yicha ish olib borilayotir. Jumladan, “Yosh muhandis” ilmiy-tadqiqot loyihalashtirish markazini tashkil etish loyihasi Tasviriy san’at kafedrasi mudiri Faxriddin Toshpo‘latov tomonidan taqdim etilgan bo‘lib, unda “Yosh muhandis” ilmiy-tadqiqot loyihalashtirish markazini tashkil etish orqali yoshlarning muhandislik, texnik va ijodiy salohiyatini rivojlantirish asosiy maqsad qilingan. Shuningdek, inklyuziv ta’lim o‘quvchilari uchun “Power band” va magnitli ruchka loyihasini taqdim etayotgan Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi Sitora Alimardanova ham nuqsoni bor bolalarda yozish ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan “Power band” va magnitli ruchkani yaratish ko‘zda tutilgan. Mazkur moslamalar bolalarning qo‘l mushaklarini to‘g‘ri ishlashiga yordam beradi, yozish jarayonidagi qiyinchiliklarni kamaytiradi hamda yozishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Loyiha inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilib, ijtimoiy ahamiyatga ega innovatsion yechim hisoblanadi. Institut doktoranti Sitora Alimardanova “Akademik harakatchanlik” dasturida inklyuziv ta’limga oid ishlanmasi bilan qatnashib, 54 million so‘mlik loyiha g‘olibasi bo‘lganligini faxr bilan e’tirof etish mumkin. Shuningdek, Tabiiy va aniq fanlar fakulteti biologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi Feruza To‘xtamurodova tomonidan taqdim etilgan “Chayonlarni laboratoriya sharoitida boqish, ko‘paytirish va ulardan zahar olish” loyihasi chayonlarni sun’iy muhitda boqish va ko‘paytirish hamda ulardan zahar olish texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan. Loyihaning asosiy maqsadi chayon zahrining biologik va tibbiy xususiyatlarini

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ



o‘rganish, farmatsevtika va tibbiyot sohalarida foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Ushbu loyiha ilmiy tadqiqotlar bilan bir qatorda iqtisodiy va amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, mahalliy sharoitda biologik mahsulotlar yetishtirish imkonini yaratadi.

“STARTAP GARAJ”DAN “VENCHUR FONDLAR”GACHA

Yoshlarni ish beruvchiga aylantirish yo‘lida Termiz davlat pedagogika instituti Surxondaryo viloyati hokimligi bilan hamkorlikda bir qator tizimli bosqichlarni amalga oshirmoqda. Talaba va yosh tadqiqot-chilarning inno-vatsion g‘oyalari yagona bazaga jamlanib, “Aloqa venchur”, “Yoshlar venchur” kabi fondlar hamda “Startap garaj” bilan doimiy aloqa o‘rnatildi. Bu esa yoshlarga 10 milliard so‘mgacha kredit va investitsiya jalb qilish imkonini beradi. Qolaversa, IT Park Termiz va Termiz yoshlar Texnoparki bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgan targ‘ibot tadbirlari talabalarga biznes-inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari haqida tushuncha berilmoqda.

“MENING BIRINCHI KASBIM” VA KELAJAK ISTIQBOLLARI

Prezidentimiz ta’kidla-ganidek, 2030-yilgacha mehnat bozoriga 1 million nafar yosh kirib keladi. Ushbu demografik o‘sishni iqtisodiy drayverga aylantirish uchun Termiz davlat pedagogika instituti kabi oliygohlarda talabalarni nafaqat diplomli mutaxassis, balki “qiymat yaratuvchi” shaxs sifatida tarbiyalashga e’tibor qaratilmoqda.

“Mening birinchi kasbim” dasturi doirasidagi stajirovka tizimi talabalarning amaliy tajriba yetishmasligi bilan bog‘liq muammolarini hal etishga xizmat qiladi. Termiz davlat pedagogika institutida olib borilayotgan islohotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi yoshlar faqat ish o‘rni kutib o‘tiruvchilar emas, balki o‘z g‘oyalari bilan yangi ish o‘rinlari yaratuvchi kuchga aylanmoqda. Bu — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining eng mustahkam poydevoridir.

Oltmish mingdan ziyod yoshlar vakillari ishtirok etgan Prezidentimiz bilan muloqot yurtimizda o‘sib kelayotgan yosh avlod vakillarini har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash, qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan davlat siyosatining amaliy ifodasidir. Oliygohni tamomlagan 2 200 nafar bitiruvchidan 2 024 nafarining bandligi ta’minlangani ham ulkan yutuq deyish mumkin.

“Kelajakka qadam” dasturi doirasida 35 ta loyiha moliyalashtirilib, 661 nafar ijtimoiy ko‘makka muhtoj, yetim va nogiron talabalar moddiy rag‘batlantirildi. “Kelajak tadbirkori” dasturi doirasida o‘zini o‘zi band qilgan yoshlarga garovsiz 20 million so‘mgacha kredit ajratilishi ko‘plab yoshlar uchun ilk iqtisodiy imkoniyat eshigini ochadi. Bu mablag‘ orqali hunarmandchilik, xizmat ko‘rsatish, IT va kichik ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlarda faoliyat boshlash imkoniyati kengayadi. Eng muhimi, garov talab qilinmasligi yoshlarning

ISSN: 3060-4761

moliyaviy to‘siqlarini kamaytiradi. Tadbirkorlik ko‘nikmasiga ega bo‘lib, o‘z biznesini boshlayotgan yoshlarga 300 million so‘mgacha kredit berilishi esa startap tashabbuslarni real loyihaga aylantirishga xizmat qiladi. Bu yoshlarning faqat ish izlovchi emas, balki ish o‘rinlari yaratuvchi kuchga aylanishini ta’minlaydi.





Ayniqsa, kamida 5 nafar bitiruvchini ishga olgan tadbirkorlarga 10 milliard so‘mgacha kredit berilishi — yoshlar bandligini ta’minlashga qaratilgan strategik yondashuvdir. Bu tizim nafaqat tadbirkorni qo‘llab-quvvatlaydi, balki ta’lim muassasalarini bitirgan yoshlarning ish bilan ta’minlanishiga ham kuchli turtki beradi.

Shuningdek, oliy o‘quv yurtining bir qator salohiyatli yoshlari nomdor stipendiyalar bilan taqdirlanishganligi universitetning ilmiy yuksalayotganligini ifoda etadi. Qolaversa, ta’limdagi yuqori ko‘rsatkichlari, ilmiy izlanishlardagi faolligi, fan olimpiadalari va jamoat ishlaridagi namuna bo‘ladigan yoshlar institut tomonidan ta’sis etilgan “Rektor stipendiyasi” sovrindorlari sifatida e’tirof etilib, ularning o‘quv, ilmiy hamda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi yutuqlari keng jamoatchilikka ibrat sifatida ko‘rsatilmoqda.

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ



G'OYALAR JAMLANADI — MUNOSIBI TANLANADI

Prezidentimiz bilan muloqot davomida Ijtimoiy himoya milliy agentligi va Yoshlar ishlari agentligi "Fikringni ber (VOICE UP)" inklyuziv oromgohini tashkil qilib, yoshlar tashabbusi asosida o'ndan ziyod loyihalarni amalga oshirganligi xususida alohida ta'kidlandi. Endilikda ushbu loyihani har bir hududda o'tkazib, 1 ming nafar yoshni qamrab olish, eng yaxshi loyihalarni taklif qilgan yoshlar ishtirokida Samarqand shahrida Xalqaro inklyuziv yoshlar oromgohini tashkil qilish vazifasi topshirildi.

"O'sish va rivojlanish (UPSHIFT)" startap loyihasi kengaytirilib, bu yil media, dizayn, hunarmandchilik, ishlab chiqarish va innovatsiya yo'nalishlarida ham tanlov o'tkaziladi. Yoshlarning eng yaxshi 40 ta startap loyihasini moliyalashtirish uchun 2 milliard so'm ajratilishi belgilandi. Bu tashabbuslarga javoban Termiz davlat pedagogika institutida International Inclusive Hub xalqaro tayanch inklyuziv professional ta'lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy va amaliyotga yo'naltirilgan dasturlari asosida qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etilgan bo'lib, unda ingliz tili, komp`yuter tizimlari va komplekslar, tasviriy san'at — ijodiy qobiliyat va amaliy mahorat to'garaklari muntazam faoliyat yuritayotir. Kurslar inklyuziv ta'lim tamoyillari asosida tashkil etilgan bo'lib, har bir tinglovchining imkoniyati va ehtiyojlari inobatga olinadi.

Ta'kidlash o'rinliki, bugungi kunda oliy o'quv yurti jahonning 25 ta yirik intellektual salohiyati baland oliy o'quv yurtlari bilan xalqaro hamkorlik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, xorijlik 57 nafar professor-o'qituvchilar ta'lim jarayoniga jalb etilgan. Rossiya Federatsiyasi hamda Fransiya davlati bilan qo'shma ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilib, 70 nafar professor-o'qituvchining xorijda malaka oshirishi uchun sharoit yaratildi.

Yoshlarning ish bilan ta'minlanishi nafaqat iqtisodiy mustaqillikni ta'minlaydi, balki ularning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlaydi. Band yosh – bu ertangi taraqqiyotning ishonchli kafolati demakdir. Mazkur muloqotda bildirilgan tashabbuslar "inson qadri uchun" tamoyilining amaliy ifodasi sifatida baholanishi mumkin. Yoshlar siyosatidagi bunday izchillik mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

